

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI ISH YURITISH TERMINLARINING O'ZARO TARJIMASIDAGI AYRIM MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**Turdiyev Islomjon Mamadaminovich**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

**Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti o'qituvchisi.**

**Email: [mr.turdiyev93@gmail.com](mailto:mr.turdiyev93@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13860196>**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ayrim ish yuritish terminlarining ingliz va o'zbek tillaridagi tarjimasida duch kelinadigan muammolar hamda ularning tarjimasini muqobil variantini tanlashning ahamiyatliligi, shuningdek tarjimalar taklif qilinadi. Maqola rasmiy hujjatlar nomlarining, qolaversa muayyan ish yuritishga oid boshqa terminlarning ikki tadqiq qilinayotgan tildagi tarjimalarining to'g'ri qo'llanilishi uchun muhim tadqiqot na'munasidir.

**Kalit so'zlar:** mahalliydashitirish, chetlashtirish, dubletlar, o'zlashma leksemalar, tarjima muammolari

### **Kirish**

Har bir sohada bo'lgani kabi tarjimonlar ham ma'lum bir matn yoki atamani tarjima qilishda muarakkablikka duch kelishi bu tabiiy hol, albatta. Ushbu o'rinda tarjima qilinayotgan obyektning qaysi sohaga tegishliligi hamda uning o'quvchisi kim ekanligini bilish muhim ahamiyatga egadir. Ish yuritish sohasining maxsus terminlar sistemasi ekanligini hisobga olsak ushbu fikr o'z tasdig'ini topadi deyishimiz mumkin. Tarjimonlar uchun muhim vazifalar bu tarjima qilishda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardan xabardor bo'lish va ularga yechim topishga tayyor bo'lishlaridir. Aynan soha terminologiyasi haqida gap ketganda rasmiy uslub dominant hisoblanadi va unda yuqori darajadagi sifatli va aniq tarjima talab qilinadi. Adekvat sifatli tarjima deganda tarjimonlar o'z subyektiv fikrlarini berishlari mumkin, ammo Hatim va Munday fikriga ko'ra, yakuniy xulosa "ma'noning so'zma-so'z talqini, shaklga rioya qilish va umumiy aniqlikka urg'u berish" bo'ladi<sup>1</sup>. Ushbu tadqiqotda tarjima qilingan termini o'quvchi o'z mazmunini olish uchun ko'p kuch sarflamasligi kerak, shuning uchun tarjima sodda va tushunarli bo'lishi kerakligi haqidagi fikr olg'a suriladi. Biroq aynan termin tarjimasini sodda qilish juda murakkab vazifadir. Shunga qaramasdan mavjud terminlarning tarjimasida aniqlik va bir vaqtning o'zida jozibadorlik jihatidan tahlil qilinishi zarur.

### **Asosiy qism**

Tadqiqotchi Enoch Ajunva ta'kidlaganidek, tarjima muammolarini ikkita asosiy toifaga bo'lish mumkin - tashqi va ichki yoki o'z-o'zidan paydo bo'ladigan. Tashqi qiyinchiliklar, *birinchidan*, manba tilidagi matnning o'ziga xos xususiyati tufayli yuzaga kelishi mumkin, masalan, u nisbatan katta, murakkab, yuqori ilmiy va texnik bo'lsa. *Ikkinchidan*, tarjimadag muammolar polisemantik atamalarining ma'nolarining noaniqligi yoki tarjima qilinayotgan tilda terminologiyaning etishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.<sup>2</sup> Olim Aiga Dukate bu

<sup>1</sup> Hatim, Basil and Jeremy Munday. 2004. Translation. An advanced resource book. London/ New York:Routledge.

<sup>2</sup> Ajunwa, Enoch. 2015. Fidelity Challenges in Translation. Translation Journal, January 2015. <https://translationjournal.net/January-2015/fidelity-challenges-in-translation.html> [Accessed 12 July 2019].

muammolarni matn tarjimasining gibril tabiati bilan bog'laydi. Dukatega ko'ra, har qanday tarjima

“ikki tegishli madaniyatga - manba madaniyati va tadqiq etilayotgan madaniyatga bog'langan gibril matn sifatida tarjima qilish xususiyatiga ko'ra gibril matnning ba'zi xususiyatlariga ega<sup>3</sup>. Matn gibriligi tarjimon matnni tushinishda muammolarga duch kelishining asosiy sabablaridan biri bo'lishi mumkin, bu adekvat va tushunarli tarjima chiqarishda asosiy shartdir. Tarjimaning gibril tabiati bilan kurashish uchun “mahalliyashtirish” va “chet ellashtirish” olimlar tomonidan taklif qilingan va soha mutaxassislari tomonidan qo'llaniladigan asosiy tarjima strategiyalari hisoblanadi.

Bir til oilasiga mansub bo'lmaganligi sababli ingliz va o'zbek tillarining og'zaki va yozma nutqida nafaqat terminlarning qo'llanilishida balki umuman nutq jarayonida ham sezilarli tafovutlarni ko'rish mumkin. Ingliz tilida ko'p qo'llaniladigan hamda nutq jarayonini rang-barang qilib beradigan sinonimiya hamda polisemiya, maxsus terminlarni tarjima qilish jarayonida birmuncha murakkablik yuzaga keltiradi. Soliq terminlarining o'zbek tiliga tarjimasi ustida tadqiqot olib borgan olim O.Ahmedov o'zining “Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari” nomli doktorlik dissertatsiyasida amaliyotda sohaga oid terminlarning ma'nolari yetarlicha farqlanmayotgani bois bunday terminlar me'yoriy hujjatlarda turlicha sharhlanmoqda ekanligini hamda tarjima adekvatligining yuzaga kelishiga monelik qilayotgan ekanligini, shuningdek, polisemantik va sinonimik terminlar, ularning tarjimadagi variantlari (absolyut, nisbiy, ideografik, kontekstual, dialektal, stilistik, aralash) sinonimlar tez-tez uchrab turishi kuzatilishini ta'kidlaydi<sup>4</sup>.

Terminlar va umumadabiy soz'larning lug'atlarida albatta aniqlik jihatidan farq bo'lishi lozim deb hisoblaymiz, ya'ni sohaga oid terminlar lug'ati birmuncha izohlar bilan ta'minlangan va aniqroq tarjimaga ega bo'lishi lozim. Lug'atshunos olim L.V.Shcherba lug'atlarga qo'yiladigan talablar turlicha bo'lishi lozimligini nazarda tutgan va umumadabiy tilga o'zlashgan u yoki bu soha terminlarining filologik va ensiklopedik lug'atlarda turlicha talqin qilinishini ta'kidlagan edi<sup>5</sup>.

Boshqa soha terminlari kabi ish yuritsih terminlari ham ingliz tilidan tarjima qilinganda bir qancha sinonimik tarjimalar (dubletlik)ga ega bo'lishi kuzatiladi. Shu o'rinda dubelt so'ziga izoh berib o'tish muhimdir. Fransuzcha *doublet*, *double* – so'zlaridan olingan dublet leksemasi “ikkinchi nusxasi, ikkinchi shakldagi ko'rinishi” ma'lum bir so'zning ikki va undan ortiq nusxa bo'lganda qo'llaniladi (*maslan: Clerk / Cleric – kotib/ruhoniy, Census / Sensus-ro'yxatga olish/tuyish*). Etimologiyada bir tildagi ikki yoki undan ortiq so'zlar turli fonologik shakllarga ega bo'lsa-da, bir xil etimologik ildizga ega bo'lsa, dublet yoki etimologik egizak (yoki ehtimol uchlik va boshqalar) deyiladi. Ko'pincha, lekin har doim emas, bunday so'zlar so'zlar tilga turli yo'llar orqali kirdi. Sohaviy terminlar tarjimasidagi muammolar haqida o'z fikrini bergan holda olim O.Ahmedov dublet so'zlarga o'z munosabatini bildirib “Dublet so'zlar derivatsion-etimologik va semantik jihatdan bir-biriga yaqin yoki bir xil bo'lgan, ammo tilning muayyan bosqichidagi tadrijiy rivojlanish ta'siri natijasida semantik va stilistik jihatdan differensial

<sup>3</sup> Dukate, Aiga. 2007. Manipulation as a Specific Phenomenon in Translation and Interpreting. Riga.

<sup>4</sup> O.Ahmedov “Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari” diss. 2016

<sup>5</sup> Щчерба Л.В. Русско - французский словарь. М.: 1959.-249 б.

xususiyatga ega bo'lgan leksik birliklardir. Shunga ko'ra terminologiyada muayyan tushuncha ikki xil qo'llanganda ular orasidagi farqqa aniqlik kiritish masalasi hanuz munozarali hol bo'lib kelmoqda" deya ta'kidlagan. Bundan tashqari dublet so'zlarga olimlarning qarashlari turlicha ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Olimlarning bir guruhi bunday so'zlarni ma'lum tushunchani turli shakllarda ifoda etuvchi birlik deb qarasarlar, boshqa guruh olimlar doubletlar bular sinonimlar emas ularni birbiridan farqlash muhim ekanligini qayd etishadi. Yana bir guruh olimlar esa dublet terminlarni bir xil so'zlarning turli variantlari emas balki bir shkali chet tilidan kirib kelgan bo'lsa boshqasi o'sha tildan kelib chiqqan juf terminlar deb hisoblashadi.<sup>6</sup> Tilshunos olim A.A.Reformatskiy bir tushunchani ifodalovchi tushunchalardan farqli o'laroq, bir nechta termin bir tushunchani tasvirlashini dubletlar deb atashni (*bunga misol qilib o'zbek tilidagi "guvohnoma" so'zining ingliz tilida "certificate, reference kabi ekvivalentlari bor*) taklif qilgan bo'lsa<sup>7</sup>, Tilshunos V.A. Sitkina undan farqli o'laroq sinonimiya hodisasini variantlilik deb atab, uning leksik, fonetik, morfologik jihatlarini ajratib ko'rsatadi<sup>8</sup>. Terminologik sistemlarining sinonimlar qatorida dubletlar ham uchrashini ta'kidlab o'tgan V.P. Danileko ularni 3 holatda yuzaga kelishini qayd etadi:

1. O'zlashma leksema paydo bo'lishi bilan o'zlashtirayotgan tilda uning ma'nosiga teng keladigan so'z hosil qilinib, iste'molga kiritiladi (*distance learning-masofaviy ta'lim*);
2. O'zlashma bilan ma'lum tildagi so'z teng (parallel) qo'llanadi; (*analyst- tahlilchi yoki analitik*)
3. Bir tushuncha uchun turli tillardan o'zlashgan bir necha termin qo'llanganda (*direktor-principal, schoolmaster, rus tilidan kirib kelgan- dupekmop*)<sup>9</sup>.

Yuqorida keltirilgan muqobilsiz leksikaning lakuna va realiya hodisasini hozirgi kundagi terminologik tarjima muammolaridan deyishimiz mumkin. Kanadalik olimlar J.Vine va J.Drabelne o'zlarining "Fransuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi" nomli kitobida birinchi bo'lib lakuna atamasini ikki til o'rtasidagi tarjima jarayonida hosil bo'ladigan holat sifatida qo'llashgan hamda lakunalarni ma'lum bir tildagi terminning boshqa tilda muqobili bo'lmagan o'rinda voqelanishini ta'kidlashgan<sup>10</sup>. Garchi lakuna termini ushbu davrgacha turli xil semantik o'zgartishlarga uchragan bo'lsa ham uning asl terminologik xossasi saqlanib qolgan. Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki lakunalar har qanday tillar tarjimasida ham duch kelinishi aniq bo'lgan holatdir. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda lakuna hodisasiga misol tariqasida "*online*" so'zini oladigan bo'lsak ushbu so'z "*masofadan turib internet aloqasi yordamida aloqada bo'lish*"ni ma'nosini beruvchi termindir. Ushbu termin hozirgi kunda o'zbek tilida ish yurituv jarayonida keng miqyosda qo'llaniladi. Lakunaga yana bir misol "*business plan*" o'zbek tilida "biznes-reja" atamasi mavjud, lekin reja tuzish jarayonida har bir qadam, vazifa va maqsadlar aniq keltirilishi talab etiladi, bu esa aslida "business plan" ga muvofiq tushunilmay qolishi mumkin. Shuningdek, "*outsourcing*" termini tashqi xizmatlar

<sup>6</sup> Мадвалиев А. Ўзбек терминологиясида дублетлик масаласи //Ўзбек тили ва адабиёти. 1982. № 3.- 123 б.

<sup>7</sup> Реформатский А. Мысли о терминологии/Современные проблемы русской терминологии. -М.: 1966.- 297 с.

<sup>8</sup> Циткина Ф.А. Терминология и перевод. // К основам сопоставительного терминоведения. - Львов: 1988. – 213 с.

<sup>9</sup> Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизуемой терминологий//Терминология и норма.-М.: 1972.-128 с.

<sup>10</sup> Vinay J., Darbelnet J. Stylistique comparee du francais et de l'anglais. - Paris, 1958. p.10.

taqdim etish jarayoni ma'nosini berib o'z-o'zidan lakuna tashkil qiladi, chunki O'zbekistonda bu atama ko'plab hozirgi ish yuritish jarayonlarida batafsil muhokama qilinib o'tirmasdan amalda qo'llanadi. Ingliz tiliga fransuz tilidan kirib kelgan "*budget*" so'zi o'zbek tilida "byudjet" deb qabul qilingan va uning muqobil variyanti yo'q.

Lakunalar bilan birga unga yaqin bo'lgan va yuqorida qayd etilgan tushuncha hamda tillararo tarjimada muammo tug'diradigan hodisa bu realiyalardir. Realialarni ma'lum "xalqning turmush tarzi, madaniyati va urf odatlarini o'zida aks ettirgan, boshqa xalq va til uchun begona bo'lgan so'z"<sup>11</sup> tarzida tavsiflanishi bu atama uchun eng o'rinlisidir. Lakunalardan farqli o'laroq realiya aynan qaysidir xalqqa tegishli bo'lib uni boshqa tilga tarjima qilishda tarjima qilayotgan tilda bu kabi atama mavjud bo'lmaganligi sababli o'z holicha olinadi ammo ularga izoh berilishi muhimdir. O'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan va madaniy jihatdan aynan ingliz xalqiga xos "*coffe break*" termini oladigan bo'lsak bu so'zning, ta'rifi "*biron bir majlis yoki ish faoliyati davomida qahva ichib yengil tamaddi qilish uchun olinadigan qisqa tanaffus*" dir. Ushbu terminning o'zbek tilida ayni tarjimasi yo'q, o'zbek xalqida qahva ichish urfga kirmaganligi bois, ish faoliyati davomida ishchilar qahva ichish uchun tanaffus olishmaydi. Realialarga yana bir misol bu "*stand-up*" termini ushbu terminning ham o'zbek tilida muqobili mavjud emasligining sababi bu atama ingliz tilida so'zlashuvchi mamalakatlarida ish jarayoni davomida ma'lum muddatga xodimlar tik turgan holda korxonada yoki tashkilotdagi o'sish yoki muammolarni tahlil qilish jarayonidir. Bunday faoliyat o'zbek mentalitetiga xos bo'lmaganligi uchun ham terminning muqobili mavjud emas.

**Madaniy muammo.** Turli madaniyatlarda atamalar turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin va to'g'ridan-to'g'ri tarjima har doim ham mos kelmasligi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi "*face*" atamasi ham odamning boshining old tomoniga, ham uning obro'siga yoki ijtimoiy mavqeiga ishora qilishi mumkin, lekin ba'zi tillarda bu ma'nolar turli so'zlarni talab qilishi mumkin. Yuqoridagi lakun va realiya hodisasidan kelib chiqib tarjimadagi bu muammoni biz shartli ravishda "muqobilsizlik" deb atadik. Lekin aynan muqobilsizlikni ham ikkala misoldan ko'rib chiqqanimizdek o'ziga xos bir aspekti sifatida madaniyatni olishimiz ahamiyatga ega. O'ziga xos madaniyat ham terminlarni tarjima qilishda ekvivalent yetishmasligiga olib kelar ekan.

Realialardan tashqari yana bir muammo bu muayyan xalqga xos bo'lgan terminning tarjimasini chiqarishda uning komponentlarining ko'payib ketishidir. Masalan, ingliz tildagi "*wage*" so'zini oladigan bo'lsak bu o'zbek tilidagi soatbay daromadga to'g'ri kelsada wage asosan soatbay hisoblanib hafta yakunida beriladigan to'lovdur. O'zbek tilida soatbay haq bu yoki oy oxirida yoki soat hajmi bajarilgandan so'zng beriladigan haqdir. Bu termini bir so'z bilan tarjima qilish albatta tushunmovchilikka olib keladi. Yana bir misol ingliz ish joylarida yangi hodim bilan tanishib olish uchun rasmiy tanishtiruvdan keyin ishlatiladigan "*Touch base*" termini mavjud. Ushbu termin bitta "tanishuv" tushunchasini bildirishiga qaramasdan maxsus holatdan aynan yangi kelgan xodim bilan uning hamkasblari o'rtasidagi qisqa tanishuvga nisbatan ishlatilishini qad etish joiz. Ushbu terming yaqin tushunchani bildiruvchi "*onboarding*" termini ham mavjud bo'lib, bu ham *tanishtiruv*, *tanishuv* tushunchasini bildirsada uning aynan yangi xodimni *ish shaoirti* va *ofis tartib-qoidalari* bilan tanishitirish jarayoni ma'nosini bildiradi.

<sup>11</sup> Kasimova Z. Dunyo tilshunosligida realiyalar tasnifi // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2020-yil 9-son, 39-bet.

**Texnik jargon va sohaga oid so'zlashuv uslubi** ham tarjima jarayonida muammoalar keltirib chiqarishi mumkin. Tibbiyot, huquq yoki texnologiya kabi sohalarda aniq jargonning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasini bo'lmasligi mumkin. Bu manba va tarjima qilinayotgan tillarni hamda tegishli sohalarni chuqur tushunishni talab qiladi. Ushbu qiyinchiliklarni hayotning turli sohasida qo'llaniladigan o'ziga xos tilni o'z ichiga olgan texnik tarjimada kuzatish mumkin. Ingliz tilida misolar: *"Red tape"* termini keraksiz va ko'p vaqt talab qiladigan, ko'pincha ortiqcha qog'ozbozlikni o'z ichiga olgan byurokratik tartib-qoidalarni izohlaydi. Ushbu termini so'zma-so'z tarjima qilinsa *"qizil tasma"* tarjimasini beradi va buni faqat ofis sohasida faoliyat yuritayotgan shaxslar tushuna olishi mumkin.

*"Paper pushers"* terminining so'zma-so'z tarjimasini *"qo'goz suruvchi"* shaklida qilinsa ham uning izohi ishi asosan ko'plab hujjatlar bilan ishlovchi odamlarga nisbatan ishlatiladi, ushbu terminning aynan unga mos keladigan tarjimasini o'zbek tilida mavjud emas.

*"Circle back"* termini ham ish yuritis jarayonida tashkilotlarda, biron bir muammoga yechim topilmaganda qaytadan majlis qilish ma'nosida ishlatiladi va bunga ham adekvat tarjima berish mushkul.

O'zbek tilida misollar: *"O'quv reja"* ushbu termini ingliz tiliga so'zma-so'z tarjima orqali *"educational plan"* shaklida tarjima qilish mumkin ammo uning ma'nozi izoh talab qiladi. Chunki ingliz tilida o'quv rejasini o'quv yurtidagi boshqaruv tashkiloti emas balki, kafedra mudiri shakllantirib beradi. Tarjimadagi muammo ikki davlat o'quv muassasasi o'rtasidagi hujjat alamishinuvda tushunmovchilik kelirib chiqaradi.

*"Yuklama"* ushbu termin tashkilotlardagi xodimga biriktirilgan soat miqdorini anglatgan ingliz tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda ushbu termin *yuk, yuklama* ma'nosini beruvchi *"load"* holida tarjima qilinadi, bu tarjima aynan ish yuritish sohasida *"workload"* shaklini olishi maqsadga muvofiqdir, chunki yuqorida ta'kidlanganidek *"workload"* so'zi termin sifatida mavjud va bu adekvat tarjima bo'la oladi.

**Yangi atamalar:** Turli sohalarda doimiy ravishda yangi atamalar yaratilmoqda va tarjima qilayotgan tilda ekvivalent atama bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda tarjimonlar yangi atama o'ylab topishi yoki ma'noni yetkazish uchun tavsiflovchi iboradan foydalanishi kerak bo'ladi. Yangi texnologiyalar, madaniy hodisalar yoki ko'pincha hali tarjimalari qilinmagan ilmiy kashfiyotlar yangi atamalarni hosil qiladi. Ilmiy-texnika tarmoqlari jadal rivojlanmoqda va shu bilan birga yangi atamalarni yaratilishi tezlashmoqda. Yangi terminologiyani yaratish tezligidan tashqari, tarjimon ibora yoki atamaning dunyoning boshqa qismlarida boshqacha yozilgan nomi bor yoki yo'qligini aniqlashi kerak, bu esa oddiy so'z tarjimasini qiyinlashtiradi. O'zbek tiliga yaqin yillarda kirib kelgan *"coworking"* termini hozirgi kunda ommaviy axboort vositalari yoki ish joylarida keng qollanilmoqda ushbu termin o'zbek tili uchun yangi termin hisoblanib bu birgalikda ishlash mumkin bo'lgan joylarga nisbatan ishlatiladi. Yana bir misol sifatida hozirgi kunda oliy ta'lim tizimidagi o'qitish shakllaridan biri *"hybrid teaching"* atamsini oladigan bo'lsak uni o'zbek tiliga "gibrid ta'lim" sifatida qabul qilingan, Gibrid atamasi ham o'zbek tiliga yangi so'z o'lganligi uchun uni tarjima qilish yoki uning ekvivalentiga alamshtirish lozim deb hisoblaymiz. Yana bir misol bu *"academic mobility"* ushbu atama ham hozirgi kunda chet eldan milliy ta'lim tizimimizga kirib kelib rasmiy hujjatlarda *"akademik mobillik"* sifatida qo'llanilmoqda, ammo bu so'z birikmasining ikkalasi ham ingliz tilidan olinib tarjima qilinmasdan iste'molga kiritilganligi bois hammaga ham tushunarli bo'lavermaydi.

### Xulosa

Yuqorida sanab o'tilgan terminologiya, xususan ish yuritish terminologiyasining tarjima muammolariga sabab bo'luvchi holatlarni tushunish hamda ularga yechim bera olish juda ham muhimdir. Quyida terminlarni tarjima qilish bo'yicha bir qancha takliflar keltiriladi:

1. Terminlarni tarjima qilishda foydalaniladigan onlayn yoki boshqa manbaalardan qo'llanilganda, terminlarning Grammatik strukturtasi hamda semantik xusuiyatlari inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir.
2. Lakuna yoki realia hodisasi yuzaga kelganda so'zlarni aynan olib kirishdan ko'ra ularni adaptatsiyali tarjima qilish soha bo'yicha tushunchaga ega bo'lmaganlar uchun ham tushunarli bo'lishiga olib keladi.
3. To'g'ri va sifatli tarjimalarni ta'minlash uchun professional tarjimon yoki tarjimon agentligini yollang.
4. Tarjimalar madaniyatga mos va to'g'ri bo'lishini ta'minlash uchun ona tilida so'zlashuvchilar yoki mavzu bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.

### References:

1. Ajunwa, Enoch. 2015. Fidelity Challenges in Translation. Translation Journal, January 2015. <https://translationjournal.net/January-2015/fidelity-challenges-in-translation.html> [Accessed 12 July 2019].
2. Dukāte, Aiga. 2007. Manipulation as a Specific Phenomenon in Translation and Interpreting. Riga.
3. Hatim, Basil and Jeremy Munday. 2004. Translation. An advanced resource book. London/ New York:Routledge.
4. Kasimova Z. Dunyo tilshunosligida realiyalar tasnifi // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2020-yil 9-son, 39-bet.
5. O.Ahmedov "Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari" diss. 2016
6. Vinay J., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. - Paris, 1958. p.10.
7. Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизуемой терминологий//Терминология и норма.-М.: 1972.-128 с.
8. Мадвалиев А. Ўзбек терминологиясида дублетлик масаласи //Ўзбек тили ва адабиёти. 1982. № 3.-123 б.
9. Реформатский А. Мысли о терминологии/Современные проблемы русской терминологии. -М.: 1966.- 297 с.
10. Циткина Ф.А. Терминология и перевод. // К основам сопоставительного терминоведения. - Львов: 1988. – 213 с.
11. Щчерба Л.В. Русско - французский словарь. М.: 1959.-249 б.